O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.F.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AMINJONOV KURBON XABIBULLAEVICH

INTERNET-KOMMUNIKATSIYALARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MAFKURAVIY JARAYONLARGA MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

09.00.05 – Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K:316.77:004.738.5:323.1-053.6

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам
Contents of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract on philosophical sciences

Aminjonov Kurbon Xabibullaevich
Internet-kommunikatsiyalarining yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati..... 3

Аминжонов Курбон Хабибуллаевич
Значение интернет-коммуникаций в формировании отношения к идеологическим процессам в мировоззрении молодежи..... 25

Aminjonov Kurbon Xabibullaevich
The significance of internet communications in shaping an attitude towards ideological processes in the worldview of youth..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works …..... 57

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.F.01.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

AMINJONOV KURBON XABIBULLAEVICH

INTERNET-KOMMUNIKATSIYALARINING YOSHLAR DUNYOQARASHIDA MAFKURAVIY JARAYONLARGA MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

09.00.05 – Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/F7781 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) O'zbekiston Milliy universiteti veb-sahifasida (www.nuu.uz) va "ZiynNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriigan.

Ilmiy rahbar:	**Agzamxodjayeva Saida Sabitxanovna** falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ochilova Baxti Muradovna** falsafa fanlari doktori, professor, **Xudoyberganov Ravshon** falsafa fanlari doktori (DSc), professor.
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Pespublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.F.01.08 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "28" noyabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 4-qavat, 416-xona. Tel.: (99871) 227-12-24; taks: (99871) 246-53-21, (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№311-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24,

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "20" 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil "19" 11 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).

N.A. Shermuxamedova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

S. Pardaev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa doktori (PhD)

J.Yo. Mavlonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ahamiyati. Jahonda raqamli sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi internet-kommunikatsiyalar orqali yoshlarning dunyoqarashi va global ongini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda, bu jarayon yoshlarning axborotga qiziqishini oshirmoqda va ularda klipli tafakkurni shakllantirmoqda. Global axborot oqimi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalari orqali tarqalayotgan g‘oyalar yoshlarning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy pozitsiyasi va mafkuraviy qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda va ularning ijtimoiy faolligi va muloqot madaniyatini rivojlantirmoqda. Ayni paytda internet makonida tarqalayotgan mafkuraviy tahdidlar yoshlarning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning takomillashgan metodologiyasini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida raqamli sivilizatsiya sharoitida internet-kommunikatsiyalari ta’sirida yoshlarning global ongi shakllanishi va mafkuraviy immunitetini rivojlantirishning falsafiy ilmiy jihatlari o‘rganilmoqda, bu tadqiqotlarda raqamli media muhitida axborot oqimining yoshlar ongiga ta’sir mexanizmlari tahlil qilinmoqda hamda mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash usullari ishlab chiqilmoqda, shu bilan birga global axborot makonida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda, biroq ba’zi hollarda yoshlarning faoliyatida axborotlarni saralash malakalari yetarli emasligi aniqlanmoqda, shu bois, bu sohadagi ilmiy ishlarni takomillashtirishga ehtiyoj oshmoqda.

O‘zbekistonda raqamli sivilizatsiya sharoitida internet-kommunikatsiyalari yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida global jarayonlarga ongli munosabatni shakllantirish davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa internet-kommunikatsiyalar orqali tarqalayotgan turli g‘oyalar va axborotlarni tanqidiy baholash, yoshlarni destruktiv mafkuralar ta’siridan himoya qilish, raqamli madaniyatni rivojlantirishning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bog‘liqligini ilmiy tahlil qilishga ehtiyoj oshmoqda. Shu nuqtai nazardan bu sohadagi ilmiy, mafkuraviy va siyosiy tadqiqotlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni va undagi 44 ta maqsad, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2017-yil 7-fevraldagi “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmonlari hamda 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-son, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son, 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot siyosati va

davlat organlarida ochiqlikni ta’minlash masalalari qo‘mitasining 2024-yil 3-iyuldagi “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holatini o‘rganish natijalari to‘g‘risida”gi 123-son qarori va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Raqamli sivilizatsiyada yoshlarning mafkuraviy immuniteti va global ongning shakllanishi hamda internet-kommunikatsiyalarining ijtimoiy ahamiyati masalalari XX asrdayoq axborot makoni va ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi doirasida g‘arb va sharq olimlari tomonidan tahlil qilingan. Ayniqsa, axborot jamiyati, kommunikatsiya vositalarining ong va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri M.Maklyuen[1], D.Bell[2], E.Toffler[3] kabi g‘arb olimlarining asarlarida ommaviy axborot vositalarini jamiyat tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilingan. Yu.Xabermasning kommunikativ amaliyot nazariyasi jamoat ongi va ijtimoiy muloqotning mafkuraviy mazmunini anglashning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘lgan[4]. Shuningdek, axborot, ma’rifat va ong o‘rtasidagi bog‘liqlik A.Toynbi[5], S.Xantington[6]ning sivilizatsion yondashuvlari orqali tahlil qilingan, ular global axborot makonida sivilizatsiyalar o‘rtasidagi mafkuraviy ta’sirning yo‘nalishini aniqlashga alohida e’tibor qaratgan.

MDH doirasida, xususan Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Ozarbayjon olimlari tomonidan internet-kommunikatsiyalar, raqamli madaniyat va yoshlar ongining transformatsiyasining ijtimoiy, ma’naviy, mafkuraviy jihatlari o‘rganilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar V.S.Styopin[7], A.V.Kostina[8], Ye.L.Vartanova[9] asarlarida raqamli axborot muhitida yoshlar ongining shakllanishi, mafkuraviy barqarorlik va mediamadaniyat muammolari ochib berilgan. Qozog‘istonlik olimlar (A.Nisanbayev va boshq.)[10] raqamli jamiyatda milliy ongning transformatsiyasini tahlil qilgan bo‘lsa, Qirg‘iziston va Tojikiston tadqiqotlarida yoshlarning axborot xavfsizligi va ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ahamiyati alohida tadqiq

---

[1] Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. - М.: Канон, 2003. - 312 с.

[2] Белл Д. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. - New York: Basic Books, 1973. Bell D. The Cultural Contradictions of Capitalism. - New York: Basic Books, 1976. Bell D. The End of Ideology: On the Exhaustion of Political Ideas in the Fifties. - New York: Free Press, 1960. Bell D. Communitarianism and Its Critics. - Oxford: Clarendon Press, 1993

[3] Toffler A. Future Shock. - New York*:* Random House, 1970. Toffler A. The Third Wave. - New York: Bantam Books, 1980.

[4] Хабермас Ю. Коммуникативное действие и социальная эволюция. - М.: Наука, 2001. - 380 с

[5] Тоинби А. Постижение истории. - М.: Прогресс, 1996. - 540 с.

[6] Хантингтон С. Цивилизациялар тўқнашуви. Кодиров жавлон таржимаси –Тошкент: 2025

[7] Степин цивилизация и культура. Москва: Канон 2017, Стёпин В.С. Теоретическое знание и социокультурный контекст. - М.: Наука, 2000. - 400 с.

[8] Костина А.В**.** Массовая культура как феномен постиндустриального общества. - Москва: Академический проект, 2008.

[9] Вартанова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран. - Москва: Аспект Пресс, 2003.

[10] Назарбаев Н.Н. Взгляд в будущее: модернизация общественного сознания. - Астана, 2017. - 45 с.

etilgan. Ozarbayjon olimlari I.Aliyev,[11] A.Abbasov [12]global axborot makonida milliy qadriyatlarni saqlash va internet-kommunikatsiyalar ta'sirida madaniy identifikatsiyaning mexanizmlarini aniqlashga e'tibor qaratgan. Turkiya olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar raqamli sivilizatsiya, internet-kommunikatsiyalar va yoshlar mafkurasini islom sivilizatsiyasi, milliy ong va globallashuv jarayonlari bilan bog'lab o'rganishi bilan ajralib turadi. I.Kalin,[13] N.Gyokche[14] kabi olimlar asarlarida raqamli makonda global ongning shakllanishi, axborot ta'siri va mafkuraviy himoya masalalari ilmiy jihatdan asoslangan.

O'zbekistonda globallashuv, axborot xavfsizligi, ijtimoiy ong, raqamli kommunikatsiyalar va yoshlar barqarorligining siyosiy, ijtimoiy-falsafiy hamda ma'naviy-dunyoqarashga oid jihatlari faylasuflar va siyosatshunoslar tomonidan tadqiq etilgan. B. Tuychiev tadqiqotlarida siyosiy madaniyat, ijtimoiy ong va jamiyatni demokratlashtirish muammolari ijtimoiy-falsafiy va metodologik jihatdan tahlil qilingan. Xususan, mazkur masalalar uning «Методологический анализ формирования и развития политической культуры и демократизации современного общества» nomli tadqiqotida tizimli ravishda o'z ifodasini topgan. [15]Faylasuf olima S.Agzamxodjayeva yoshlar tarbiyasiga ijtimoiy ideal darajasida baho bergan.[16] Sh. Paxrutdinovning ilmiy ishlarida, xususan, "Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot" asarida[17] jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan zamonaviy tahdidlarning mohiyati, ularning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy asoslari, shuningdek, yangi tahdidlar sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlash muammolari ochib berilgan. N. Xakimovning tadqiqotlarida zamonaviy jamiyatning dolzarb falsafiy muammolari, ijtimoiy transformatsiya, qadriyatlar va dunyoqarash masalalari tadqiq etilgan.[18] B. Omonov o'z tadqiqotlarida jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari hamda G'arb va Sharq mamlakatlarida kechayotgan transformatsion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilgan.[19] J. Mavlonov tadqiqotlarida jamiyat taraqqiyoti va modernizatsion jarayonlar masalalari zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar hamda ta'lim siyosati kontekstida ko'rib chiqilgan.[20] J. Ramatov globallashuv jarayonlari, inson ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasi, ma'naviyat va ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojlanishida axborot va ommaviy kommunikatsiya vositalarining o'rnini tadqiq

[11] Алиев И. Глобализация и национальная идентичность. - Баку: Элм, 2014. - 260 с.
[12] Аббасов А. Глобализация и культурная идентичность. - Баку: Элм, 2007.
[13] Kalın İ. *I*, the Other, and Beyond: Reflections on Identity, Globalization, and Modernity. - Istanbul: İnsan Yayınları, 2018.
[14] Gökçe N**.** Digital Media and Global Consciousness: The Turkish Perspective. - Istanbul: Marmara University Press, 2015.
[15] Туйчиев Б.Т. Методологический анализ формирования и развития политической культуры и демократизация современного общества: автореф. дис. ... д-ра филос. наук. - Ташкент, 1991. - 37 с.
[16] Agzamxojdaeva S.S. Ijtimoiy idealning jamiyat taraqqiyotidagi roli.Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent O'zMU, 2008. 55 b.
[17] Paxrutdinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. -Toshkent: Tafakkur. 2016
[18] Хакимов Н.Х., Матвеева А.И., Тураева Д.Т. Философия. - Алматы: Дарын Баспасы, 2023. - 182 с.
[19] Omonov B.A. Conceptual Foundations of the Modernization of the Society (Comparative Analysis of the Countries of the West and the East*)*. Warsaw: iScience Sp. z o. o., 2021.
[20] Mavlonov J.Y., Bo'riyev I.S. Educational Policy in Uzbekistan: Experience and Modernization Processes. International Journal of Scientific Trends, Vol. 4, No. 1, 2012.

etgan.[21] B. Ochilovaning ishlarida globallashuv masalalari ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyot, vorisiylik va zamonaviy jamiyatda kechayotgan transformatsion jarayonlar bilan o'zaro aloqadorlikda tadqiq etilgan.[22] N. Shermuxamedovaning tadqiqotlarida, jumladan, kibermadaniyatga bag'ishlangan ishlarida raqamli muhitning falsafiy jihatlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'sirida insonning bilish faoliyati va madaniyatida yuz berayotgan o'zgarishlar ochib berilgan.[23] O. Muxammadiyevaning ilmiy ishlarida, xususan, "Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi" monografiyasida[24] ma'naviyatning aksiologik asoslari, axloqiy qadriyatlar hamda ularning yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari tadqiq etilgan. Mazkur nazariy qoidalar zamonaviy axborot muhiti sharoitida yoshlarning qadriyatlarga asoslangan barqarorligini tadqiq etishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida globallashuv va jamiyatni axborotlashtirish jarayonlari, axborot makoni va zamonaviy kommunikatsiyalarning ijtimoiy ongga ta'siri, milliy manfaatlar, ma'naviy qadriyatlar hamda axborot xavfsizligining ahamiyati ochib berilgan. Yoshlarning dunyoqarash barqarorligini mustahkamlash, milliy identiklikni saqlash va yoshlarda yuz berayotgan ijtimoiy hamda axborot transformatsiyalariga moslashish qobiliyatini shakllantirish zaruratiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, internet-kommunikatsiyalarning ijtimoiy ahamiyati yetarlicha keng yoritilganiga qaramay, raqamli sivilizatsiya sharoitida yoshlarda global ongni shakllantirish va ularning mafkuraviy immunitetini rivojlantirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muammosi yaxlit ijtimoiy-falsafiy va tizimli tadqiqot ob'ekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Bu esa mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish va falsafiy-metodologik jihatdan chuqurlashtirish, internet-kommunikatsiyalarning yoshlar dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini aniqlash hamda yangi ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan mosligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning mushtarakligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi internet-kommunikatsiyalari orqali yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllanish mexanizmlarining siyosiy, ijtimoiy madaniy jarayonlar bilan bog'liq jihatlarini tahlil qilish va uning falsafiy ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

internet kommunikatsiyalarining yoshlar dunyoqarashi va global jarayonlarga ongli munosabat shakllanishidagi rolini tahlil qilish va uning mafkuraviy ahamiyatini asoslash;

---

[21] Ramatov J.S. Globallashuv jarayonlari va inson ijtimoiy mohiyatining transformatsiyasi. - 2024; Ramatov J., Rajabov X. Fuqarolik jamiyati shakllanishiga ommaviy axborot vositalarining ta'siri.

[22] Ochilova B. Ixlosmandlikda meros va vorisiylik uyg'unligi. - Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2006; Ochilova G.A., Omonov B.N. Ijtimoiy falsafa: o'quv qo'llanma.

[23] Shermuxamedova N. Kiber madaniyat // Falsafa. -Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.

[24] Muxammadieva O. Bedil va axloqiy qadriyatlar falsafasi: monografiya. - Toshkent: Yangi nashr, 2016. - 168 b.

yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy va konseptual mexanizmlarini ochib berish;

internet kommunikatsiyalar orqali global jarayonlarga ongli munosabatni rivojlantirish va yoshlar ongini mafkuraviy ta’sirdan muhofaza qilishning falsafiy-ijtimoiy yo‘nalishlarini asoslash;

media, raqamli platforma va madaniyat orqali yoshlar dunyoqarashini shakllantirish va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish strategiyalarini falsafiy va amaliy nuqtai nazaridan ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida raqamli sivilizatsiya sharoitida rivojlanayotgan internet kommunikatsiyalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlarda global jarayonlarga ongli munosabatning shakllanishi va internet kommunikatsiyalar orqali ularning ma’naviy, siyosiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlash mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektika, germenevtika, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, empirik-sotsiologik so‘rovnoma metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli sivilizatsiya sharoitida internet kommunikatsiyalari yoshlar dunyoqarashi va global jarayonlarga ongli munosabatining shakllanishiga ta’sirining, ularda tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash imkoniyatlarini ochib berishi, bu siyosiy hushyorlik va vatanparvarlikni rivojlantirishning falsafiy va ijtimoiy mexanizmlari sifatida mafkuraviy ahamiyat kasb etishining ilmiy jihatlari asoslangan;

yoshlar ongida global va milliy taraqqiyot jarayonlarining o‘zaro dialektikasi internet va media muhit orqali tarqalayotgan axborotlarni saralash imkonini berishi ularning ma’naviy barqarorligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va davlat g‘oyalariga sodiqlikni mustahkamlashning mafkuraviy omili sifatida namoyon bo‘lishi ochib berilgan;

internet kommunikatsiyalar va raqamli madaniyat orqali yoshlarda global jarayonlarga ongli munosabatni rivojlantirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash strategiyalarining integratsiyasi yoshlar ongida siyosiy hushyorlikni oshirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning falsafiy metodologik asosi sifatida namoyon bo‘lishi isbotlangan;

raqamli platforma va media vositalari orqali yoshlarda dunyoqarashni tarbiyalash va mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllantirish mexanizmlari takomillashtirilgan, bu jarayonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta’minlaydigan hamda yoshlarda milliy qadriyatlar, siyosiy hushyorlik va vatanparvarlik hissini shakllantirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

internet kommunikatsiyalari, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini baholashda axborotni tanqidiy qabul qilish, ishonchli va manipulyativ kontentni farqlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan

holda mustaqil munosabat bildirish hamda raqamli muhitda mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishning amaliy imkoniyatlari ochib berilgan**;**

yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda internet kommunikatsiyalaridan samarali foydalanish, ularda global jarayonlarga ongli munosabat, axborot xurujlariga nisbatan ma’naviy-axloqiy immunitet, siyosiy hushyorlik va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlashning o‘zaro bog‘liq mexanizmlari hamda mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish orqali ma’naviy barqarorlikni ta’minlash zarurati asoslangan**;**

yoshlar dunyoqarashini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan media resurslar, internet kommunikatsiyalari, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlarini o‘zaro integratsiyalash asosida axborotni saralash va baholash, mediasavodxonlikni yuksaltirish, ma’naviy-axloqiy xavflarga nisbatan barqaror munosabatni shakllantirish, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar hamda amaliy strategiya ishlab chiqilgan**.**

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy va ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarning nashr etilganligi, xulosa, amaliy taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganining tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan g‘oyalardan yoshlar dunyoqarashi va global jarayonlarga ongli munosabati shakllanishida raqamli sivilizatsiya va internet kommunikatsiyalaridan foydalanishda siyosiy hushyorlik va vatanparvarlik tuyg‘usini oshirish, internet muhiti va raqamli madaniyatning yoshlar ongidagi tanqidiy fikrlashni shakllantirishga doir ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan g‘oyalardan yoshlar ongi va dunyoqarashini shakllantirishda internet kommunikatsiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik va strategik tavsiyalar, media va raqamli madaniyat vositalari orqali global jarayonlarga ongli munosabat va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash yo‘nalishlarini ishlab chiqish, yoshlarda vatanparvarlik ruhini va ijtimoiy faollikni oshirishga oid tadbirlarni tashkil etish, “Falsafa”, “Axborot xavfsizligi”, “Elektron hukumat” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Internet-kommunikatsiyalarining yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari bo‘yicha quyidagilar keltirilgan, xususan:

raqamli sivilizatsiya sharoitida internet-kommunikatsiyalari yoshlar dunyoqarashi va global jarayonlarga ongli munosabati shakllanishiga ta’siri ularda tanqidiy fikrlash va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash imkoniyatlarini ochib berishi, shu orqali siyosiy hushyorlik va vatanparvarlikni rivojlantirishning falsafiy va ijtimoiy mexanizmlarining ilmiy asoslanganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniyat va Ma’rifat” telekanalida efirga uzatilgan “Zamondosh” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasining 2026-yil 16-iyundagi 19-69/722-sonli ma’lumotnomasi). Natijada internet-kommunikatsiyalari orqali yoshlar dunyoqarashi shakllanishining to‘liq modelini yaratishda, yoshlar ongi va tafakkuriga turli ommaviy vositalardan foydalangan holda jamiyatning siyosiy madaniyati mafkurasiga ta’sir o‘tkazish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

yoshlar ongida global va milliy mafkuraviy ta’sirlarning o‘zaro dialektikasi internet va media muhit orqali tarqalayotgan axborotlarni saralash imkonini berishi bu yoshlar ma’naviy barqarorligi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va davlat g‘oyalariga sodiqlikni mustahkamlashiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi shaxsiy tarkibi bilan internet-kommunikatsiyalari orqali yoshlar dunyoqarashi shakllanishining to‘liq modelini yaratish, yoshlar ongi va tafakkuriga turli ommaviy vositalardan foydalangan holda jamiyatning siyosiy madaniyati mafkurasiga ta’sir o‘tkazib, uni barqaror taraqqiyotini yoki beqaror inqirozini ifodalovchi ijtimoiy omil sifatidagi o‘rnining falsafiy tahlillari va xulosalaridan vazirlikning yoshlarga oid hujjatlarini ishlab chiqishda, “Ma’naviyat soati”, davra suhbatlari, ijodiy tanlovlar kabi tadbirlarni o‘tkazishda keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining 2026-yil 10-iyuldagi 2/4126-3319-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar yoshlarning ongi va hayotida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarning oldini olishda ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanish, ijobiy ta’sir ko‘rsatishida media ta’limning o‘rni va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

internet-kommunikatsiyalar va raqamli madaniyat orqali yoshlarda global jarayonlarga ongli munosabati rivojlantirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash strategiyalarining integratsiyasi yoshlar ongida siyosiy hushyorlikni oshirish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning falsafiy metodologik asosi sifatida namoyon bo‘lishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining bo‘linma va harbiy ta’lim muassasalarida “Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyati”, “Harbiy psixologiya”, “Harbiy pedagogika” kabi fanlarni nazariy-metodologik jihatdan boyitishda, “Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik” mashg‘uloti, “Ma’naviyat soati”, davra suhbatlari, ijodiy tanlovlar, kitoblar mutolaasi, tarixiy-madaniy maskanlarga tashriflar kabi tadbirlarni o‘tkazishda keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2026-yil 7-iyuldagi 10/1400-sonli ma’lumotnomasi). Natijalar harbiy xizmatchilar va o‘quvchi yoshlarni vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, fidoyilik, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan;

raqamli platforma va media vositalari orqali yoshlarda dunyoqarashni tarbiyalash va global jarayonlarga ongli munosabatni mustahkamlash mexanizmlari takomillashtirilgan, bu jarayonda mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta’minlaydigan, yoshlarda milliy qadriyatlar, siyosiy hushyorlik va vatanparvarlik hissini shakllantirishning nazariy va amaliy yo‘nalishlarining ahamiyatiga oid xulosalardan O‘zbekiston milliy gvardiyasi tuzilmalarida “Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar uslubiyati”, “Harbiy psixologiya”, “Harbiy pedagogika” kabi fanlarni nazariy-metodologik jihatdan boyitishda, “Ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik” mashg‘uloti, “Ma’naviyat soati”, davra suhbatlari, ijodiy tanlovlar kabi tadbirlarni o‘tkazishda keng foydalanilgan (O‘zbekiston milliy gvardiyasining 2026-yil 6-iyuldagi 1/1-2248-sonli

ma’lumotnomasi). Natijalar yoshlarning global ongini shakllantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 6 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, 6 tasi xorijiy nashrlarda, 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 157 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlarning soni va dissertatsiya tuzilishi va hajmi asoslangan.

Dissertatsiyaning “**Internet-kommunikatsiyalari sharoitida yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabat shakllanishining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida globallashuvning ijtimoiy-falsafiy mazmuni, uning zamonaviy jamiyat taraqqiyotida namoyon bo‘lish xususiyatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq transformatsion jarayonlar hamda ularning yoshlar ijtimoiy ongi va dunyoqarashiga ta’siri ochib berilgan. Muallif fikricha, globallashuvni faqat iqtisodiy integratsiya yoki texnologik taraqqiyot natijasi sifatida talqin qilish uning mohiyatini to‘liq ifodalamaydi, zero, mazkur jarayon iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy va axborot sohalarini yagona o‘zaro bog‘liq makonga aylantirib, bir tomondan, xalqlar va davlatlar o‘rtasida axborot, bilim, texnologiya va madaniy tajriba almashinuvini jadallashtirsa, ikkinchi tomondan, milliy identiklik, qadriyatlar tizimi va yoshlarning dunyoqarashiga yangi mazmundagi ta’sirlarni yuzaga keltiradi. Shu ma’noda globallashuv ob’ektiv taraqqiyot jarayoni bo‘lishi bilan birga, ichki ziddiyatlarga ega ijtimoiy fenomen sifatida baholanadi. Globallashuvning jamiyat hayotining iqtisodiy, madaniy, texnologik, ijtimoiy va ta’lim sohalariga kirib borishi ham uning ko‘p o‘lchovli xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi[25]. Bunda globallashuv, mafkuraviy tahdid va ommaviy madaniyat yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabat shakllanadigan ijtimoiy-ma’naviy muhit sifatida, internet va ijtimoiy tarmoqlar esa mafkuraviy ta’sirlar yoshlar ongiga yetib boradigan asosiy kommunikativ kanal sifatida namoyon bo‘ladi.

[25] Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. London: Sage Publications, 1992

Dissertatsiyada globallashuv fenomeniga nisbatan shakllangan nazariy yondashuvlarning xilma-xilligi ochib berilgan. Roland Robertson globallashuvni dunyoning tobora yaxlitlashib borishi bilan bog‘liq jarayon sifatida tushuntirgan bo‘lsa, Jozef Stiglits uning inson farovonligi, bilim va texnologiyalar tarqalishi uchun yaratadigan imkoniyatlariga e’tibor qaratadi, Jagdish Bxagvati esa globallashuvning iqtisodiy mexanizmlarini xalqaro savdo, investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar va moliyaviy oqimlar bilan bog‘laydi. Ulrix Bek globallashuvni jahon bozori va milliy chegaralar munosabatini o‘zgartiruvchi murakkab ijtimoiy jarayon sifatida tahlil qiladi. Ushbu yondashuvlarni umumlashtirish asosida muallif globallashuvning yagona yo‘nalishda kechmaydigan, ijobiy imkoniyatlar bilan bir vaqtda ijtimoiy, madaniy va ma’naviy ziddiyatlarni ham keltirib chiqaradigan murakkab fenomen ekanligini asoslagan.

Dissertatsiyada globallashuvning milliy ma’naviyatga ta’siri va mazkur jarayonda yuzaga keladigan tahdidlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan anglash zarurati ochib berilgan. Muallif fikricha, globallashuvning ta’sirini mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida baholash metodologik jihatdan bir tomonlama yondashuvdir, chunki uning ijobiy jihatlari axborot va bilim almashinuvining tezlashishi, innovatsiyalar tarqalishi, madaniyatlararo muloqotning kengayishi va ta’lim imkoniyatlarining ortishida namoyon bo‘lsa, salbiy jihatlari madaniy standartlashuv, milliy qadriyatlarning zaiflashishi, ma’naviy begonalashuv, axborot manipulyatsiyasi hamda yoshlar ongiga tashqi ta’sir mexanizmlarining kuchayishida ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan, globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni muhofaza qilish tashqi axborot oqimlarini inkor etish emas, balki yoshlarda ularni tanqidiy anglash, saralash va milliy manfaatlar nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini shakllantirishni taqozo etadi.[26] Dissertatsiyada “xavf”, “xavf-xatar” va “tahdid” tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda tahdidning ijtimoiy-falsafiy mazmuni ochib berilgan. Muallif fikricha, xavf muayyan salbiy oqibatning yuzaga kelish ehtimolini ifodalasa, tahdid ana shu ehtimolning yoshlar, jamiyat yoki davlat manfaatlariga muayyan darajada yo‘naltirilgan ta’sirga aylanishini anglatadi. Shu bois tahdidni faqat jismoniy kuch yoki ochiq tajovuz shaklida tushunish yetarli emas, u g‘oya, axborot, mafkura va qadriyatlar vositasida inson ongi va dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatuvchi nomoddiy jarayon sifatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, ma’naviy-mafkuraviy tahdid dastlab yoshlar ongida qarash, tasavvur va qadriyat sifatida shakllanib, keyinchalik ularning ijtimoiy xulq-atvori va faoliyatida moddiylashishi mumkinligi asoslangan[27].

Dissertatsiyada global axborot makonida “ommaviy madaniyat”ning yoshlar dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari ochib berilgan. Muallif fikricha, ommaviy madaniyatni bir ma’noda faqat salbiy hodisa sifatida talqin qilishdan ko‘ra, uning zamonaviy madaniy kommunikatsiya tizimidagi ikkiyoqlama tabiatini hisobga olish maqsadga muvofiq. Bir tomondan, u madaniy mahsulotlardan keng auditoriyaning foydalanish imkoniyatini oshiradi, axborot almashinuvini tezlashtiradi va turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida umumiy kommunikatsiya maydonini yaratadi, ikkinchi tomondan esa tijoratlashuv, standartlashuv va madaniy gomogenlashuv orqali

[26] Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. -Toshkent: O‘zbekiston, 2013.
[27] Paxrutdinov Sh.I. Tahdid - halokatli kuch. -Toshkent: Akademiya, 2001.

yoshlarning estetik didi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvor modellariga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ayniqsa, ommaviy madaniyat mahsulotlarining ijtimoiy tarmoqlar orqali algoritmik tarzda tez tarqalishi ularning yoshlar dunyoqarashiga ta’sir ko‘lamini yanada kengaytiradi.

Dissertatsiyada Internetning oddiy texnik-kommunikatsion vositadan jamiyatning ijtimoiy munosabatlari, boshqaruvi va axborot almashinuvini o‘zgartiruvchi global ijtimoiy makonga aylanishi ochib berilgan. Muallif fikricha, internetni faqat ma’lumot uzatish texnologiyasi sifatida emas, balki texnik, ijtimoiy, axborotiy va kommunikativ komponentlarni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida tushunish lozim. Uning rivojlanishi natijasida “internet-kommunikatsiya”, “elektron hukumat”, “elektron demokratiya”, “elektron davlat” va “elektron fuqaro” kabi tushunchalarning ijtimoiy muomalaga kirib kelishi davlat, jamiyat va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirgan. Shu jihatdan Internet zamonaviy jamiyatda axborot resursigina emas, balki ijtimoiy aloqalarni tashkil etish va yoshlarning ijtimoiy tajribasini kengaytirish muhiti sifatida ham namoyon bo‘ladi[28].

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoq tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kommunikatsion xususiyatlari va yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Muallif fikricha, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilar o‘rtasida oddiy xabar almashish vositasi bo‘lib qolmasdan, yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va voqelikka munosabatini shakllantiradigan virtual ijtimoiy muhitga aylangan. Mazkur muhitda yoshlar axborotni nafaqat qabul qiladi, balki uni yaratadi, qayta ishlaydi, tarqatadi va boshqa foydalanuvchilar bilan muhokama qiladi. Natijada axborot iste’molchisi va axborot ishlab chiqaruvchisi o‘rtasidagi an’anaviy chegara nisbiylashib, yoshlar ijtimoiy kommunikatsiyaning faol sub’ektiga aylanadi.

Dissertatsiyada Internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirining konstruktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda, ularning ziddiyatli xususiyatlari ham ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamli kommunikatsiyalar axborotdan tezkor foydalanish, bilimlarni kengaytirish, ijtimoiy muloqot va fuqarolik faolligi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ijtimoiy tarmoq algoritmlarining foydalanuvchi qiziqishlariga mos axborotni ustuvor ravishda taqdim etishi axborot maydonining torayishi, bir xil qarashlarning muntazam takrorlanishi va muqobil pozitsiyalarning chetda qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, axborotning haddan tashqari ko‘pligi yoshlarning voqelikni tizimli anglashiga salbiy ta’sir qilishi, soxta xabarlar va manipulyativ kontent esa ularning ijtimoiy voqelik haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli raqamli muhitda yoshlar dunyoqarashining barqarorligi axborotni tanlash, tekshirish, qiyosiy tahlil qilish va uning manbasini baholash kompetensiyalariga bevosita bog‘liqligi asoslangan.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri ularning yosh va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda ochib berilgan. Muallif fikricha, yoshlarni yagona ijtimoiy guruh sifatida emas, balki axborotni qabul qilish tajribasi, ijtimoiy maqomi va fuqarolik faolligi darajasiga ko‘ra farqlanuvchi qatlamlar sifatida o‘rganish zarur. Umumta’lim muassasalari o‘quvchilarida ijtimoiy-siyosiy qarashlar hali shakllanish jarayonida bo‘lganligi sababli tashqi axborot ta’siriga moyillik nisbatan

[28] Басин М.А., Шилович И.И. Синергетика и Internet. -Санкт-Петербург: Наука, 1999

yuqori bo‘lsa, talabalarda axborot bilan ishlash, uni baholash va ijtimoiy jarayonlarga mustaqil munosabat bildirish ko‘nikmalari faol shakllanadi. Mehnat faoliyatiga kirgan yoshlarda esa axborot ta’siri ularning ijtimoiy tajribasi, kasbiy manfaatlari va fuqarolik pozitsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Shu jihatdan yoshlarda mediasavodxonlik, axborot madaniyati va tanqidiy tafakkurni bosqichma-bosqich rivojlantirish ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’sirlarini kamaytirishning muhim sharti sifatida asoslangan.

Dissertatsiyada globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar sharoitida milliy ma’naviyat, milliy o‘zlikni anglash va yoshlarning qadriyatlarga munosabati o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik ochib berilgan. Muallif fikricha, milliy o‘zlikni anglash global axborot oqimlaridan uzilishni emas, balki ular bilan ongli va tanqidiy munosabatga kirishish imkonini beruvchi ma’naviy-madaniy mezon vazifasini bajaradi. Yoshlar milliy tarix, madaniy meros, til, urf-odat va umuminsoniy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini chuqur anglagan taqdirdagina global axborot makonidagi turli g‘oya va qarashlarni mustaqil baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu sababli milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish, axborot va mediamadaniyatni yuksaltirish hamda yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ijtimoiy tarmoqlarning dunyoqarashga salbiy ta’sirini kamaytiruvchi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Internet-kommunikatsiyalari orqali yoshlar dunyoqarashi shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli axborot makonining kengayishi sharoitida yoshlar dunyoqarashi shakllanishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning mazkur jarayonga ta’sir mexanizmlari, shuningdek, axborot madaniyati va mediasavodxonlikning yoshlarning mustaqil pozitsiyasini qaror toptirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamlashgan jamiyatda dunyoqarashni faqat yoshlar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar, g‘oyalar va qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilish yetarli emas. Chunki zamonaviy axborot muhitida yoshlar voqelik haqidagi bilimlarni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uzluksiz axborot oqimi, mediakontent, ijtimoiy kommunikatsiya va virtual munosabatlar ta’sirida ularni tanlaydi, baholaydi, qayta talqin qiladi va shu asosda o‘z ijtimoiy pozitsiyasini shakllantiradi. Binobarin, raqamli muhit dunyoqarashning tashqi axborot manbai bo‘libgina qolmasdan, uni shakllantiruvchi yangi ijtimoiy-madaniy makonga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar internet-kommunikatsiyalarining yoshlar orasida eng keng tarqalgan shakli bo‘lgani sababli, yoshlar dunyoqarashi shakllanishining umumiy qonuniyatlari, avvalo, yoshlar dunyoqarashi va ularning mafkuraviy jarayonlarga siyosiy xushyorligini shakllantirish lozim.

Dissertatsiyada yoshlar dunyoqarashining bilish, qadriyatli-baholash va xulq-atvorni tartibga solish funksiyalarining o‘zaro aloqadorligi ochib berilgan. Mazkur uch komponent raqamli muhitda yangi mazmun kasb etadi, yoshlar axborotni qabul qilish orqali voqelikni biladi, uni mavjud qadriyatlari bilan qiyoslash orqali baholaydi va hosil bo‘lgan munosabat asosida muayyan ijtimoiy xatti-harakatni tanlaydi. Demak, ijtimoiy tarmoqlarning dunyoqarashga ta’siri axborotni oddiy yetkazish bilan cheklanmay, “axborot idrok baholash e’tiqod pozitsiya ijtimoiy xatti-harakat” zanjiri orqali amalga oshadi. Muallif ushbu bog‘liqlikni yoshlar dunyoqarashi transformatsiyasining muhim

mexanizmi sifatida baholaydi. Shu ma’noda, raqamli muhitda dunyoqarashning barqarorligi qabul qilinayotgan axborot miqdori bilan emas, balki uning ishonchliligini aniqlash, mazmunini tanqidiy baholash va shaxsiy qadriyatlar tizimi bilan uyg‘unlashtira olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Dissertatsiyada ommaviy axborot vositalarining yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi axborot berish funksiyasi bilan bir qatorda, voqelikni talqin qilish funksiyasi ham ochib berilgan. Muallif fikricha, OAV voqea va hodisalarni shunchaki aks ettirmaydi, balki muayyan mavzuni tanlash, uning ayrim jihatlariga ustuvor ahamiyat berish, axborotni muayyan kontekstda taqdim etish orqali yoshlarning voqelikni qanday idrok etishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, dissertatsiyada kun tartibini belgilash, freyming va “jimlik spirali” nazariyalarining metodologik imkoniyatlaridan foydalanilib, medianing yoshlarga “nima haqida o‘ylash” bilan birga, muayyan darajada “voqelikni qay tarzda talqin qilish” uchun ham axborotiy chegara va yo‘nalish berishi asoslangan. Shu sababli axborot makonida yoshlarning mustaqil dunyoqarashini saqlab qolish muqobil manbalarni qiyoslash, dalil bilan talqinni farqlash va axborotning kommunikativ maqsadini anglash kompetensiyalarini talab etadi.

Dissertatsiyada an’anaviy OAVdan raqamli mediaga o‘tish natijasida axborot kommunikatsiyasining sub’ekt-ob’ekt munosabatlari o‘zgarganligi ochib berilgan. Muallif fikricha, an’anaviy kommunikatsiyada yoshlar asosan axborot qabul qiluvchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘lsa, ijtimoiy tarmoqlarda ular bir vaqtning o‘zida axborot iste’molchisi, yaratuvchisi, tarqatuvchisi va sharhlovchisiga aylanadi. Bu esa dunyoqarash shakllanishini bir tomonlama ta’sir jarayonidan ko‘p sub’ektli interaktiv jarayonga aylantiradi. Yoshlar endi faqat media ta’sirining ob’ekti emas, balki axborot makonini shakllantirishda ishtirok etadigan faol sub’ekt hamdir, ammo bunday sub’ektlik avtomatik ravishda dunyoqarash mustaqilligini ta’minlamaydi, chunki foydalanuvchining axborot tanlovi algoritmik saralash, virtual guruhlar, ijtimoiy ma’qullash va tengdoshlar ta’siri bilan cheklanishi mumkin.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini izohlashda ijtimoiy identifikatsiya va ijtimoiy-kognitiv yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Muallif fikricha, yoshlar virtual makonda muayyan guruhlarga mansublik hissini shakllantirish bilan bir vaqtda boshqa foydalanuvchilarning xatti-harakatlari, hayot tarzi, qadriyatlari va munosabatlarini kuzatish orqali ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi. Natijada virtual guruhga mansublik, taqlid, ijtimoiy ma’qullash va takroriy axborot ta’siri yoshlarning o‘zini anglashi hamda ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sir qiluvchi o‘zaro bog‘liq mexanizmlarga aylanadi. Ijtimoiy tarmoqlar turli madaniyatlar, qarashlar va turmush tarzi bilan tanishish orqali dunyoqarashni kengaytirish imkonini berishi bilan birga, virtual guruh bosimi orqali individual pozitsiyaning konformlashuviga ham olib kelishi mumkin.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri algoritmik vositachilik nuqtai nazaridan ham ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamli platformalarda yoshlar axborotni mutlaq erkin tanlayotgandek ko‘rinsa-da, amalda ularning axborot muhiti avvalgi qidiruvlari, qiziqishlari, munosabatlari va raqamli faoliyati asosida algoritmlar tomonidan muayyan darajada personallashtiriladi.

Natijada foydalanuvchi ko‘proq o‘zining mavjud qarashlariga mos axborot bilan to‘qnash keladi va bu “filtr pufagi” hamda “aks-sado kamerasi” effektlarini kuchaytirishi mumkin. Bunday sharoitda axborot xilma-xilligining tashqi ko‘rinishi saqlangan holda, yoshlarning real axborot maydoni torayishi, muqobil qarashlarga nisbatan ochiqlik pasayishi va avvaldan mavjud e’tiqodlar mustahkamlanishi mumkin. Mazkur jarayon raqamli muhitda dunyoqarash mustaqilligining yangi muammosini keltirib chiqaradi.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning o‘zini o‘zi anglashi va ijtimoiy identikligini shakllantirishdagi ambivalent xususiyati ochib berilgan. Muallif fikricha, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga o‘z qiziqishlari, e’tiqodlari, qobiliyatlari va hayotiy pozitsiyasini namoyon qilish uchun keng imkoniyat yaratsa-da, virtual o‘zini taqdim etish jarayonida “real Men” va “raqamli Men” o‘rtasida tafovut yuzaga kelishi mumkin, masalan layklar, izohlar, obunachilar soni va boshqa raqamli ma’qullash indikatorlarining ahamiyati ortishi yoshlarning o‘zini baholash mezonlarini tashqi virtual e’tirofga bog‘lab qo‘yish xavfini kuchaytiradi. Natijada ijtimoiy tarmoq nafaqat yoshlar dunyoqarashini ifodalovchi makon, balki ularning o‘zini qanday qabul qilishi, boshqalar bilan qiyoslashi va ijtimoiy maqomini qanday tasavvur etishiga ta’sir qiluvchi identifikatsion muhit sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada olib borilgan tahlillar asosida “raqamli dunyoqarash” tushunchasining mualliflik talqini ishlab chiqilgan. Muallif fikricha, raqamli dunyoqarash yoshlarning raqamli axborot makonida voqelikni anglash, axborotni tanlash va baholash, virtual va real ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil pozitsiya belgilash hamda raqamli faoliyati oqibatlari uchun mas’uliyatni anglashini ifodalovchi integrativ qarashlar tizimidir. Ushbu ta’rif raqamli dunyoqarashni faqat texnologiyadan foydalanish ko‘nikmasi yoki axborotga egalik qilish darajasi bilan cheklamay, uni kognitiv, aksiologik, kommunikativ va faoliyatga oid komponentlarni birlashtiruvchi mafkuraviy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyada raqamli dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi asoslangan, uning kognitiv komponenti axborotni izlash, tushunish, manbalarni qiyoslash va dalillarni tekshirish qobiliyatini, aksiologik komponenti raqamli kontentni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida baholashni, kommunikativ komponenti virtual muloqot madaniyati, boshqa pozitsiyalarga nisbatan tolerantlik va muloqot mas’uliyatini, refleksiv-tanqidiy komponenti esa manipulyatsiya, dezinformatsiya va algoritmik ta’sirni anglash hamda o‘z axborot iste’molini nazorat qilish qobiliyatini qamrab olishi asoslangan. Muallif fikricha, faoliyat komponenti yoshlarning raqamli muhitda olgan bilim va qadriyatlarini ijtimoiy mas’uliyatli xatti-harakatga aylantirishini ifodalaydi. Bu komponentlarning yaxlitligi raqamli dunyoqarashning yetuklik darajasini belgilaydi.

Dissertatsiyada mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkur yoshlarni axborotdan oddiy himoya qilish vositasi emas, balki ularning dunyoqarash mustaqilligini ta’minlovchi intellektual mexanizm ekanligi ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamli muhitda samarali himoya yoshlarni axborotdan ajratib qo‘yish bilan emas, balki ularda axborot manbasini tekshirish, dalil va fikrni farqlash, bir nechta manbani qiyoslash,

ma’lumotlarni hisobga olish, manipulyativ usullarni aniqlash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirish bilan ta’minlanadi. Shu ma’noda mediasavodxonlik raqamli dunyoqarashning amaliy-intellektual asosi bo‘lib, yoshlarning axborot ta’siri ob’ektidan ongli axborot sub’ektiga aylanishini ta’minlaydi. Bu yondashuv media va axborot savodxonligini axborotni topish, baholash, ishlab chiqish va undan mas’uliyatli foydalanish kompetensiyalari bilan bog‘lovchi UNESCO konsepsiyasi bilan hamohangdir[29].

Dissertatsiyada yoshlarning raqamli dunyoqarashini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va global axborot makoni o‘rtasidagi munosabat ham ochib berilgan. Muallif fikricha milliy qadriyatlarni saqlash raqamli globallashuvdan izolyatsiyalanishni anglatmaydi, aksincha, milliy o‘zlik yoshlarga global axborot oqimidagi mazmunlarni baholash uchun barqaror aksiologik mezon beradi. Shu sababli yoshlarning raqamli dunyoqarashini shakllantirishda milliy madaniy xotira, tarixiy meros va ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy raqamli kompetensiyalar, mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkur bilan mutanosibligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday mutanosiblik yoshlarga global axborot makonida ochiq bo‘lish bilan bir vaqtda o‘z milliy-madaniy identikligini saqlash imkonini beradi.

Dissertatsiyada yoshlar dunyoqarashining raqamli muhitdagi transformatsiyasi “axborotni qabul qilish algoritmik saralash ijtimoiy identifikatsiya qadriyatli baholash tanqidiy refleksiya ijtimoiy pozitsiya mas’uliyatli faoliyat” o‘zaro bog‘liqligi asosida ochib berilgan. Mualif fikricha, raqamli jamiyatda yoshlar dunyoqarashining yetukligi axborot hajmi yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish intensivligi bilan emas, balki axborotni mustaqil baholash, algoritmik va manipulyativ ta’sirni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish hamda virtual muhitdagi tanlovlari uchun mas’uliyatni his etish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu jihatdan raqamli dunyoqarash axborotlashgan jamiyatda yoshlar ijtimoiy sub’ektligining yangi shakli sifatida asoslangan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbekistonda internet-kommunikatsiyalari orqali yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning muammo va yechimlari”** deb nomlangan uchinchi bobida global raqamli makonda yoshlar dunyoqarashining axborot ta’sirlariga barqarorligini ta’minlash, mafkuraviy immunitetni rivojlantirish, axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish hamda ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyativ ta’sirlarning oldini olishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlari ochib berilgan. Muallif fikricha, zamonaviy axborot xavfsizligini faqat texnik himoya, huquqiy cheklov yoki zararli kontentni bloklash bilan ta’minlash mumkin emas. U yoshlarning axborotni anglash, saralash, tekshirish va baholash qobiliyati, qadriyatlar tizimining barqarorligi, tanqidiy tafakkuri hamda raqamli muhitdagi xatti-harakatlari uchun mas’uliyatini birlashtiruvchi kompleks ijtimoiy-madaniy jarayon sifatida qaralishi zarur.

Dissertatsiyada globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi bilan mafkuraviy immuniteti o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik ochib berilgan. Muallif fikricha, mafkuraviy immunitetni yoshlarni tashqi axborot ta’sirlaridan mutlaq himoya qiluvchi “g‘oyaviy qalqon” sifatidagina talqin qilish uning zamonaviy mazmunini to‘liq

[29] UNESCO. Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! Paris: UNESCO, 2021

ifodalamaydi. Raqamli muhitda mafkuraviy immunitet yoshlarning turli g‘oyalar va axborotlarni mustaqil qiyoslash, ularning maqsadi va manfaatlarini anglash, ishonchli va soxta axborotni farqlash, manipulyativ ta’sirni aniqlash hamda o‘z qadriyatlari asosida ongli pozitsiya belgilash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu asosda mafkuraviy immunitetning passiv himoya modeli o‘rniga yoshlarning intellektual mustaqilligi va ijtimoiy faolligiga asoslangan faol-refleksiv modeli ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyada mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilimning mavjudligi bilangina emas, balki uning shaxsiy e’tiqod va amaliy xatti-harakatga aylanishi bilan belgilanishi ochib berilgan. Muallif fikricha, yoshlar axborot tahdidi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, lekin uning manipulyativ xususiyatini konkret vaziyatda anglay olmasligi mumkin. Shu sababli “xabardorlik anglash tanqidiy baholash qadriyatli tanlov mustaqil pozitsiya mas’uliyatli harakat” bosqichlarining izchil shakllanishi mafkuraviy immunitet samaradorligining asosiy sharti hisoblanadi. Bunda yoshlarni axborotdan ajratish emas, ularda axborot bilan mustaqil va mas’uliyatli ishlash kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanadi.

Dissertatsiyada yoshlarning raqamli muhitdagi faolligi va ma’naviy barqarorligi o‘rtasidagi munosabat ham ochib berilgan. Muallif fikricha, ijtimoiy tarmoqlardagi faollikning o‘zi ijobiy yoki salbiy hodisa hisoblanmaydi, uning ijtimoiy natijasi yoshlarning qanday axborotni tanlashi, uni qanday talqin qilishi va qanday maqsadda tarqatishiga bog‘liq. Shu ma’noda raqamli faollikni ma’naviy barqarorlik, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish yoshlarning konstruktiv ijtimoiy sub’ektligini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklashdan ko‘ra, ulardan ta’lim, ma’rifat, ijodkorlik, fuqarolik tashabbusi va intellektual muloqot maydoni sifatida foydalanish madaniyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyada yoshlarning axborot xavfsizligi “texnik xavfsizlik” va “ijtimoiy-ma’naviy xavfsizlik”ning o‘zaro bog‘liqligi asosida ochib berilgan. Muallif fikricha, texnik xavfsizlik shaxsiy ma’lumotlar, axborot tizimlari va raqamli resurslarni ruxsatsiz aralashuvdan himoya qilsa, ijtimoiy-ma’naviy axborot xavfsizligi yoshlar ongi, qadriyatlari, e’tiqodi va dunyoqarashining manipulyativ axborot ta’sirlariga nisbatan barqarorligini ifodalaydi. Shuning uchun yoshlar axborot xavfsizligining samaradorligini faqat kiberhimoya vositalari bilan baholash yetarli emas, ularning axborot manbasini tekshirish, mazmun va maqsadni farqlash, axborot ta’sirining ehtimoliy oqibatlarini anglash hamda ongli qaror qabul qilish qobiliyati ham asosiy mezonlardan biri bo‘lishi lozim.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda yoshlar axborot xavfsizligini ta’minlashning huquqiy, institutsional va ma’naviy-ma’rifiy mexanizmlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilingan. Muallif fikricha, huquqiy me’yorlar axborot makonida ruxsat etilgan va taqiqlangan xatti-harakatlarni belgilasa, institutsional tuzilmalar axborot xavflarini aniqlash va ularga qarshi chora ko‘rishni ta’minlaydi, ma’naviy-ma’rifiy mexanizm esa yoshlarning zararli axborotni mustaqil anglash va rad etish qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli axborot xavfsizligining barqaror modeli “huquqiy tartibga solish institutsional profilaktika texnologik himoya mediata’lim shaxsiy mas’uliyat” komponentlarining o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar dunyoqarashini manipulyatsiya qilishning “kognitiv emotsional aksiologik xulq-atvor” ta’siri asoslangan. Muallif fikricha, dastlab muayyan axborot yoshlarning diqqatini jalb qiladi va voqelik haqidagi tasavvuriga ta’sir etadi, keyin hissiy reaksiyani kuchaytiradi, takroriy ta’sir natijasida mavjud qadriyat va baholar qayta talqin qilinishi mumkin, so‘ngra shakllangan munosabat yoshlarning muayyan qaror va xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli axborot manipulyatsiyasining oldini olish ham faqat axborot tarqalganidan keyin uni inkor qilishga emas, balki mazkur ta’sir zanjirining har bir bosqichida yoshlarning tanqidiy refleksiya qobiliyatini kuchaytirishga yo‘naltirilishi lozim.

Dissertatsiyada axborot manbalarini birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi manbalarga ajratishning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamli muhitda axborotning ishonchliligini baholashda manbaning turini aniqlashning o‘zi yetarli emas; mualliflik, dalil bazasi, nashr vaqti, kontekst, boshqa mustaqil manbalar bilan muvofiqlik va axborotning qanday maqsadda tarqatilayotganini ham kompleks tekshirish zarur. Shu asosda yoshlarning axborot kompetentligi “axborotni topish manbani identifikatsiya qilish, dalilni tekshirish, muqobil manbalar bilan qiyoslash, ma’lumotlarni tahlil qilish xulosa chiqarish va mas’uliyatli tarqatish” algoritmi orqali rivojlanishi maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyada mediasavodxonlik yoshlar axborot xavfsizligining profilaktik mexanizmi sifatida ochib berilgan. Muallif fikricha, mediasavodxonlik faqat internet yoki ijtimoiy tarmoqdan texnik foydalana olishni emas, balki mediamatnning maqsadini anglash, dalil va fikrni farqlash, axborot manbasining ishonchliligini tekshirish, vizual va emotsional manipulyatsiyani aniqlash, muqobil pozitsiyalarni qiyoslash hamda axborotni tarqatishning ijtimoiy oqibatlari uchun mas’uliyatni his etishni qamrab olishi lozim. Shu ma’noda mediasavodxonlik yoshlarning raqamli muhitdagi intellektual mustaqilligini ta’minlovchi va mafkuraviy immunitetini amaliy harakatga aylantiruvchi muhim kompetensiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Dissertatsiyada axborot xavfsizligini ta’minlashda “taqiqlash” va “immunitetni shakllantirish” strategiyalarining samaradorligi qiyosiy jihatdan ochib berilgan. Muallif fikricha, raqamli kommunikatsiyalar chegara bilmaydigan sharoitda axborot oqimini to‘liq cheklash barqaror natija bermaydi, ayrim hollarda cheklov muqobil texnik vositalardan foydalanishni kuchaytirib, axborot iste’molini nazoratdan tashqari maydonga olib chiqishi mumkin. Shu sababli uzoq muddatli samara nuqtai nazaridan axborotni cheklashdan ko‘ra yoshlarning axborot tanlash madaniyati, mediasavodxonligi, tanqidiy tafakkuri va o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega.

Dissertatsiyada milliy kontent yoshlar axborot xavfsizligini ta’minlashning faqat himoya vositasi emas, balki raqamli makonda milliy-madaniy sub’ektlikni mustahkamlash omili sifatida ochib berilgan. Muallif fikricha, milliy kontentning samaradorligi uning faqat milliy mavzuni yoritishi bilan emas, balki ishonchliligi, intellektual saviyasi, zamonaviyligi, raqobatbardoshligi va yoshlar auditoriyasining kommunikativ ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanishi lozim. Sifatli milliy raqamli kontent tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlarni birlashtirgan holda

yoshlarda milliy identiklikni saqlash bilan birga global jarayonlarga ochiq va tanqidiy munosabatni shakllantirishi mumkin.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar dunyoqarashini manipulyativ ta’sirlardan himoya qilishning kompleks profilaktik mexanizmi taklif etilgan. Muallif fikricha, mazkur mexanizmni besh o‘zaro bog‘liq bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq, diagnostik bosqichda yoshlarning axborot iste’moli, mediasavodxonligi va xavflarga moyilligi aniqlanadi, kognitiv bosqichda ishonchli manbalar bilan ishlash va faktcheking ko‘nikmalari rivojlantiriladi, aksiologik bosqichda axborotni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mezonida baholash qobiliyati shakllantiriladi, refleksiv bosqichda manipulyativ va algoritmik ta’sirni anglash hamda mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati mustahkamlanadi, faoliyat bosqichida esa axborotni mas’uliyatli yaratish, iste’mol qilish va tarqatish madaniyati amaliy xatti-harakatga aylantiriladi.

Dissertatsiyada ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyatsiyaga qarshi kurashda davlat, ta’lim muassasalari, oila, fuqarolik jamiyati institutlari, media va raqamli platformalarning hamkorligi zarurligi ochib berilgan. Muallif fikricha, mazkur sub’ektlarning vazifalari bir-birini takrorlamasligi, balki yagona profilaktik tizimni tashkil qilishi lozim, davlat huquqiy va institutsional kafolatlarni ta’minlaydi, ta’lim muassasalari mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkurni shakllantiradi, oila dastlabki axborot iste’moli madaniyati va qadriyatli mezonlarni qaror toptiradi, OAV va platformalar ishonchli axborot hamda mas’uliyatli kontent muhitini yaratishda ishtirok etadi, fuqarolik jamiyati institutlari esa jamoatchilik nazorati, faktcheking va ma’rifiy tashabbuslarni rivojlantiradi, bunda axborot xavfsizligi institutsional vazifadan umumjamiyat mas’uliyatiga aylanadi.

Dissertatsiyada yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlashning yakuniy maqsadi ularni raqamli muhitdan ajratish emas, balki raqamli muhitda mustaqil fikrlaydigan, axborotni tanqidiy baholaydigan va o‘z tanlovi uchun mas’uliyatni anglaydigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat ekanligi asoslangan. Muallif fikricha, bunday yoshlarning barqarorligi uchta o‘zaro bog‘liq sifat tanqidiy tafakkur, qadriyatli barqarorlik va raqamli mas’uliyat birligi bilan belgilanadi. Tanqidiy tafakkur axborotning haqqoniyligini baholash imkonini bersa, qadriyatli barqarorlik yoshlarga axborotni ma’naviy mezonlar asosida tanlash imkonini beradi, raqamli mas’uliyat esa qabul qilingan qarorning yoshlar va jamiyat uchun oqibatlarini anglashni ta’minlaydi. Shu asosda dissertatsiyada yoshlar axborot xavfsizligini ta’minlashning **“**axborotiy xabardorlik tanqidiy tahlil qadriyatli saralash manipulyatsiyani anglash mustaqil pozitsiya mas’uliyatli raqamli faoliyat**”** konseptual modeli asoslangan. Muallif fikricha, mazkur modelning ustuvor jihati axborot xavfsizligini tashqi nazoratdan yoshlarning ichki o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmiga aylantirishida namoyon bo‘ladi. Natijada mafkuraviy immunitet, mediasavodxonlik, axborot madaniyati va tanqidiy tafakkur alohida tushunchalar emas, balki yoshlarning raqamli muhitdagi ma’naviy-intellektual barqarorligini ta’minlovchi yagona tizimning o‘zaro bog‘liq komponentlari sifatida namoyon bo‘ladi.

“Internet-kommunikatsiyalarining yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllantirishdagi ahamiyati”
mavzusi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot
XULOSASI

Globallashuv va raqamli sivilizatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlar yoshlar dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-kommunikativ makonga aylangan. Ularning ta’siri axborot yetkazish bilan cheklanmay, yoshlarning voqelikni idrok etishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, qadriyatlarni baholashi, o‘zligini anglashi va ijtimoiy pozitsiyasini belgilashiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar dunyoqarashining transformatsiyasiga ta’sir etuvchi ko‘p omilli ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida o‘rganish zarurligi asoslandi.

Raqamli axborot makonida yoshlar dunyoqarashining shakllanishi an’anaviy bir tomonlama axborot ta’siridan ko‘p sub’ektli va interaktiv jarayonga aylangani aniqlandi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlarda axborotni nafaqat qabul qiladi, balki uni tanlaydi, baholaydi, qayta talqin qiladi, yaratadi va tarqatadi. Shu asosda dunyoqarash transformatsiyasining “axborotni qabul qilish algoritmik saralash ijtimoiy identifikatsiya qadriyatli baholash tanqidiy refleksiya ijtimoiy pozitsiya mas’uliyatli faoliyat” mantiqiy zanjiri asoslandi.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta’siri algoritmik vositachilik, “filtr pufagi”, “aks-sado kamerasi”, virtual guruh ta’siri va ijtimoiy ma’qullash mexanizmlari bilan bog‘liqligi ochib berildi. Axborot tanlovining algoritmik personallashuvi yoshlarning mavjud qarashlarini mustahkamlashi, muqobil pozitsiyalarga ochiqligini cheklashi va axborot maydonining yashirin tarzda torayishiga olib kelishi mumkinligi asoslandi. Shuning uchun raqamli muhitda dunyoqarash mustaqilligi axborot miqdori bilan emas, balki manbalarni qiyoslash, dalillarni tekshirish, algoritmik ta’sirni anglash va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati bilan belgilanishi isbotlandi.

Mafkuraviy immunitetni tashqi g‘oyaviy va axborot ta’sirlaridan passiv himoya qiluvchi “qalqon” sifatida talqin qilish raqamli jamiyat talablariga to‘liq javob bermasligi aniqlandi. U yoshlarning turli axborot va g‘oyalarni mustaqil qiyoslash, ularning maqsadi va manfaatlarini anglash, ishonchli va manipulyativ axborotni farqlash, qadriyatlar asosida mustaqil pozitsiya belgilash qobiliyatini ifodalovchi faol-refleksiv mexanizm sifatida asoslandi. Uning samaradorligi “xabardorlik anglash tanqidiy baholash qadriyatli tanlov mustaqil pozitsiya mas’uliyatli harakat” bosqichlarining izchilligi bilan belgilanishi isbotlandi.

Yoshlarning axborot xavfsizligi texnik himoya bilangina cheklanmasdan, texnik xavfsizlik va ijtimoiy-ma’naviy xavfsizlikning o‘zaro integratsiyasiga asoslanishi zarurligi asoslandi. Shu nuqtai nazardan axborot xavfsizligining “huquqiy tartibga solish institutsional profilaktika texnologik himoya mediata’lim shaxsiy mas’uliyat” kompleks modeli taklif etildi. Mazkur model axborot xavfsizligini tashqi nazorat vositasidan yoshlarning axborotni ongli tanlashi, baholashi va o‘z raqamli xatti-harakatlarini boshqarishiga asoslangan ichki o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmiga aylantirish imkonini berishi asoslandi.

Raqamli muhitda manipulyativ ta’sir dezinformatsiya, axborotni kontekstdan ajratish, bir tomonlama talqin qilish, emotsional ta’sirni kuchaytirish, takroriy axborot ta’siri va diqqatni asosiy muammodan chalg‘itish orqali amalga oshishi aniqlandi. Manipulyatsiyaning “kognitiv emotsional aksiologik xulq-atvor” zanjiri yoshlarning axborotni qabul qilishidan boshlab ularning qadriyatlari, pozitsiyasi va ijtimoiy xatti-harakatlarigacha ta’sir ko‘rsatishi asoslandi. Shu bois manipulyatsiyaga qarshi kurash axborotni taqiqlashga emas, balki uning manbasi, maqsadi, dalil bazasi, konteksti va manfaatdor sub’ektini tanqidiy tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozimligi isbotlandi.

Mediasavodxonlik va tanqidiy tafakkur yoshlarni axborotdan himoya qilishning yordamchi vositasi emas, balki ularning raqamli muhitdagi intellektual mustaqilligini ta’minlovchi asosiy kompetensiyalar ekanligi asoslandi. Axborot manbasini aniqlash, fakt va fikrni farqlash, dalillarni tekshirish, muqobil manbalarni qiyoslash, manipulyativ usullarni anglash va axborot tarqatish oqibatlari uchun mas’uliyatni his qilish yoshlar axborot madaniyatining muhim mezonlari sifatida belgilandi. Shu asosda “axborotni topish manbani identifikatsiya qilish dalilni tekshirish muqobil manbalar bilan qiyoslash ma’lumotlarni tahlil qilish xulosa chiqarish mas’uliyatli tarqatish” algoritmi axborot kompetentligini rivojlantirishning amaliy mexanizmi sifatida asoslandi.

Yoshlarni manipulyativ axborot ta’sirlaridan himoya qilishning diagnostik, kognitiv, aksiologik, refleksiv va faoliyat bosqichlaridan iborat kompleks profilaktik mexanizmi ishlab chiqildi. Diagnostik bosqichda axborot iste’moli va xavflarga moyillik aniqlanishi, kognitiv bosqichda ishonchli manbalar va faktcheking ko‘nikmalari rivojlantirilishi, aksiologik bosqichda axborot milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida baholanishi, refleksiv bosqichda algoritmik va manipulyativ ta’sir anglanishi, faoliyat bosqichida esa mas’uliyatli raqamli xulq-atvor shakllantirilishi zarurligi asoslandi. Ushbu mexanizm yoshlarni axborot ta’sirining passiv ob’ektidan raqamli muhitning ongli va mas’uliyatli sub’ektiga aylantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot internet-kommunikatsiyalari yoshlar dunyoqarashida mafkuraviy jarayonlarga munosabatni shakllantirishning yetakchi omillaridan biriga aylanganini ko‘rsatdi. Ularning ahamiyati, bir tomondan, yoshlarga global va milliy jarayonlar haqida keng axborot, fikr almashish va ijtimoiy faollik imkoniyatini berishida, ikkinchi tomondan, mafkuraviy tahdid, dezinformatsiya va manipulyatsiya kanaliga aylanishi mumkinligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli yoshlarda mafkuraviy jarayonlarga ongli munosabatni shakllantirish internet-kommunikatsiyalaridan voz kechishni emas, balki mediasavodxonlik, tanqidiy tafakkur, milliy qadriyatlar va milliy kontentga tayangan holda ulardan maqsadli foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Internetdagi global axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun chora-tadbirlar dasturini yaratish;

2) Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan milliy kontentni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga doimiy ravishda baho berish va tahlil o‘tkazish;

3) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Kinematografiya agentligi, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Adliya vazirligi hamkorlikda telekanallarning badiiy kengashlarining maqsad, vazifalarini, majburiyatlari va vakolatlarini qayta ko‘rib chiqish;

4) O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti bilan hamkorlikda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborot manipulyatsiyasi, Internetda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi to‘g‘risida tushunchalar berish, zamonaviy axborot muhitiga to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish yuzasidan ommaviy axborot vositalar va blogerlar uchun o‘quv-seminarlar o‘tkazish;

5) Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy mentalitetimizga zid materiallar, diniy adovatni qo‘zg‘atuvchi axborot xurujlariga qarshi kurashish borasida monitoring ishlarini yanada kuchaytirish;

6) O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi bilan hamkorlikda teleradiokanallar, Internet jahon axborot tarmog‘ida va tashqi reklama vositalarida ijtimoiy axborotlar doirasida milliy kontentlar targ‘ibotini kuchaytirish;

7) “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi bilan hamkorlikda davlat va nodavlat telekanallar tomonidan auditoriyaning xohish istaklari, axborot manbalariga munosabatini aniqlash maqsadida, ommaviy axborot vositalari orqali foydali kontentlarni tarqatish bo‘yicha fuqarolar fikrlarini aniqlash yuzasidan ijtimoiy so‘rovnomalar tashkil etish;

8) hamkorlik va tajriba almashish, kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va axborot xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha tajriba almashish;

9) innovatsion texnologiyalardan foydalanish, kiber tahdidlarni aniqlash va oldini olish uchun zamonaviy ma’lumotlarni himoya qilish texnologiyalari va sun’iy intellektni joriy etish;

10) xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda “Internet tarmoqlari orqali yoshlar ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotlarni oldini olish to‘g‘risida” qonunni ishlab chiqish;

11) milliy ijtimoiy tarmoqlarga tajribali pedagoglar, madaniyat va san’at vakillari, yozuvchilar, estrada yulduzlarini jalb qilib, uni ommalashtirish.

Ushbu tavsiyalar ijtimoiy tarmoqlarda axborot muhitini yaxshilash bo‘yicha siyosat va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos tariqasida ko‘rib chiqilishi kerak. Ular shaxsiy axborot xavfsizligini himoya qilish va axborot jamiyatining barqaror rivojlanishining muhim sharti bo‘lgan axborot makonining umumiyligini saqlashga qaratilgan.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.F.01.08 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

АМИНЖОНОВ КУРБОН ХАБИБУЛЛАЕВИЧ

ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРНЕТ-КОММУНИКАЦИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОТНОШЕНИЯ К ИДЕОЛОГИЧЕСКИМ ПРОЦЕССАМ В МИРОВОЗЗРЕНИИ МОЛОДЕЖИ

09.00.05 – Технологии пропаганды национальной идеи

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по философским наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации на содскание учёной степени дактора философии (PhD), зарегистрирована в высшей аттестанаонной комиссии при Кабниете Министров Республики Узбекистан под помером B2026.3.PhD/F1781.

Диссертация выполиена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации представлен на трёх языках (узбееском, русском, английским (резюмез), размешен на веб-сайте Национального университета Узбекистана (www.nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Агзамходжаева Саида Сабитхановна** доктор философских наук, профессор
Официальные опноненты:	**Очилова Бахти Мурадовна** - доктор философских наук, профессор, **Худойберганов Равшан** - доктор философских наук (DSc), профессор.
Ведушая организация:	**Университет Общественной безопасности Республики Узбекистан.**

Защита диссертации состоится «28» ноября 2026 года в 9⁰⁰ часов на заседании Ученого совета DSc 03/2025.27.12.F.01.08 при Национальном университетс Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкеит, ул. Университетская, 4., здание факультета сопиальных наук Национального университета Узбекистана. 4-й этаж, ауд. 416. Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Диссертация доступна для ознакомления в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под №11. Адрес: 100174, г.Ташкент, улица Университет, дом 4. Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации был распространен «20» 11 2026 года (Протокол реестра под №17 от «19» 11 2026 года).

Шермухамедова Н.А.
Председатель Научиого совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Пардаев С.
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD)

Ж.Ё. Мавлонов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор политических наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и значимость темы диссертации. Стремительное развитие цифровой цивилизации в мире расширяет возможности формирования мировоззрения и глобального сознания молодёжи посредством интернет-коммуникаций, данный процесс способствует повышению интереса молодёжи к информации и формирует у них клиповое мышление. Идеи, распространяемые посредством глобальных информационных потоков, социальных сетей и цифровых медиа, оказывают непосредственное влияние на систему ценностей, социальную позицию и мировоззренческие установки молодёжи, способствуют развитию её социальной активности и культуры коммуникации. Вместе с тем идеологические угрозы, распространяемые в интернет-пространстве, могут оказывать негативное воздействие на идеологический иммунитет молодёжи. В связи с этим разработка усовершенствованной методологии использования социальных сетей приобретает особую актуальность.

В ряде научно-исследовательских институтов и центров мира проводятся исследования философских и научно-теоретических аспектов формирования глобального сознания молодёжи и развития её идеологического иммунитета под воздействием интернет-коммуникаций в условиях цифровой цивилизации. В рамках данных исследований анализируются механизмы воздействия информационных потоков цифровой медиасреды на сознание молодёжи, разрабатываются методы обеспечения её мировоззренческой и идеологической устойчивости, особое внимание уделяется вопросам обеспечения идеологической безопасности в глобальном информационном пространстве. Вместе с тем в отдельных случаях выявляется недостаточная сформированность у молодёжи навыков отбора, критического анализа и оценки информации, что обусловливает возрастающую необходимость дальнейшего совершенствования научных исследований в данной области.

В Узбекистане в условиях цифровой цивилизации интернет-коммуникации проявляются как одно из приоритетных направлений государственной политики и развития общества, укрепление идеологического иммунитета молодежи, формирование у них осознанного отношения к глобальным процессам на основе национальных и общечеловеческих ценностей. Особенно возрастает потребность в критической оценке различных идей и информации, распространяемых через интернет-коммуникации, защите молодежи от влияния деструктивных идеологий, научном анализе взаимосвязи национальных и общечеловеческих ценностей в развитии цифровой культуры. С этой точки зрения важное значение приобретает совершенствование научных, идеологических, политических исследований в этой области.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии „Узбекистан – 2030“» и предусмотренными в нём 44 целями, Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017

года № УП-4947 «О Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017–2021 годах», постановлениями Президента Республики Узбекистан от 28 июля 2017 года № ПП-3160 «О повышении эффективности духовно-просветительской работы и поднятии развития сферы на новый уровень», от 14 августа 2018 года № ПП-3907 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физически гармоничного воспитания молодёжи, её обучения и воспитания», от 3 мая 2019 года № ПП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», постановлением Комитета Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам информационной политики и обеспечения открытости в государственных органах от 3 июля 2024 года № 123 «О результатах изучения состояния проводимой работы по развитию национального контента во всемирной информационной сети Интернет», а также другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом и экономическом развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Вопросыы формирования идеологического иммунитета и глобального сознания молодёжи в условиях цифровой цивилизации, а также социальной значимости интернет-коммуникаций ещё в XX веке анализировались западными и восточными исследователями в рамках теорий информационного пространства и массовой коммуникации. В частности, в трудах таких западных ученых М. Маклюэна[1], Д. Белла[2], Э. Тоффлера[3], влияние информационного общества и средств коммуникации на сознание человека и социальные рассматривается через интерпретацию средств массовой информации как основного фактора формирования общественного мышления. Теория коммуникативного действия Ю. Хабермаса выступила методологической основой осмысления идеологического содержания общественного сознания и социальной коммуникации[4]. Взаимосвязь информации, просвещения и сознания анализировалась также в рамках цивилизационных подходов А.Тойнби[5], и С. Хантингтона[6], уделявших особое внимание определению направленности идеологического воздействия между цивилизациями в глобальном информационном пространстве.

[1] Маклюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. – М.: Канон, 2003. – 312 с.
[2] Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973; Bell D. The Cultural Contradictions of Capitalism. – New York: Basic Books, 1976; Bell D. The End of Ideology: On the Exhaustion of Political Ideas in the Fifties. – New York: Free Press, 1960.
[3] Toffler A. Future Shock. – New York: Random House, 1970; Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
[4] Хабермас Ю. Моральное сознание и коммуникативное действие. – СПб.: Наука, 2000. – 380 с.
[5] Тойнби А. Постижение истории. – М.: Прогресс, 1996. – 540 с.
[6] Хантингтон С. Цивилизациялар тўқнашуви / Ж. Кодиров таржимаси. – Тошкент, 2025.

В рамках СНГ, в частности учёными России, Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана и Азербайджана, исследованы социальные, духовные и идеологические аспекты интернет-коммуникаций, цифровой культуры и трансформации сознания молодёжи. В трудах российских исследователей В.С. Стёпина[7], А.В. Костиной[8], Е.Л. Вартановой[9] раскрыты проблемы формирования сознания молодёжи в цифровой информационной среде, идеологической устойчивости и медиакультуры. Казахстанские учёные (А.Нысанбаев и др.) проанализировали трансформацию национального сознания в цифровом обществе, а в исследованиях Кыргызстана и Таджикистана особо изучено значение информационной безопасности молодёжи и формирования в её сознании идеологического иммунитета. Азербайджанские учёные И.Алиев[10], А.Аббасов[11] уделили внимание сохранению национальных ценностей в глобальном информационном пространстве и выявлению механизмов культурной идентификации под влиянием интернет-коммуникаций. Научные исследования турецких учёных отличаются изучением цифровой цивилизации, интернет-коммуникаций и идеологии молодёжи во взаимосвязи с исламской цивилизацией, национальным сознанием и процессами глобализации. В трудах таких учёных, как И. Калын[12], Н. Гёкче[13], научно обоснованы вопросы формирования глобального сознания в цифровом пространстве, информационного воздействия и идеологической защиты.

В Узбекистане политические, социально-философские и духовно-мировоззренческие аспекты глобализации, информационной безопасности, общественного сознания, цифровых коммуникаций и устойчивости молодёжи исследованы философами и политологами. В исследованиях Б. Туйчиева проблемы политической культуры, общественного сознания и демократизации общества проанализированы в социально-философском и методологическом аспектах; в частности, данные вопросы системно отражены в его исследовании «Методологический анализ формирования и развития политической культуры и демократизации современного общества»[14]. Философ С.С. Агзамходжаева дала оценку воспитанию молодёжи на уровне социального идеала[15]. В научных трудах Ш. Пахрутдинова, в частности в работе «Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт»[16], раскрыты сущность современных угроз развитию общества, их

---

[7] Стёпин В.С. Цивилизация и культура. – СПб.: СПбГУП, 2011; Стёпин В.С. Теоретическое знание и социокультурный контекст. – М.: Наука, 2000. – 400 с.

[8] Костина А.В. Массовая культура как феномен постиндустриального общества. – М.: Академический проект, 2008.

[9] Вартанова Е.Л. Медиаэкономика зарубежных стран. – М.: Аспект Пресс, 2003.

[10] Алиев И. Глобализация и национальная идентичность. – Баку: Элм, 2014. – 260 с.

[11] Аббасов А. Глобализация и культурная идентичность. – Баку: Элм, 2007.

[12] Kalın İ. I, the Other, and Beyond: Reflections on Identity, Globalization, and Modernity. – Istanbul: İnsan Yayınları, 2018.

[13] Gökçe N. Digital Media and Global Consciousness: The Turkish Perspective. – Istanbul: Marmara University Press, 2015.

[14] Туйчиев Б.Т. Методологический анализ формирования и развития политической культуры и демократизация современного общества: автореф. дис. … д-ра филос. наук. – Ташкент, 1991. – 37 с.

[15] Агзамходжаева С.С. Ijtimoiy idealning jamiyat taraqqiyotidagi roli: автореф. дис. … д-ра филос. наук. – Ташкент: НУУз, 2008. – 55 с.

[16] Пахрутдинов Ш. Тараққиётга таҳдид: назария ва амалиёт. – Тошкент: Тафаккур, 2016.

